

пает один из послелогов «жан» или «кас» в исходном падеже.

1. Послышались перекаты орудийных выстрелов из-под Ворошиловграда (А.А.Фадеев. Молодая гвардия. 8). –Топлардың қудиретли жанғырығы Ворошиловград қаласының қасынан еситилди. (А.А.Фадеев. Жас гвардия, 8).

2. Французы, потеряв около 20 тысяч человек, бежали из-под Смоленска (И.А.Федосов. История СССР, 8 кл, 15). – Французлар 20 мыңға жақын адамнан айырылып, Смоленсктің қасынан қашты. (И.А.Федосов. СССР тарихы, 8 кл., 16).

В словосочетании «глагол + из-под+род.п.» зависимое слово может выступать и в качестве исходного пункта, через, сквозь которого направляется действие, проявляется или перемещается другой предмет. Исследуемые конструкции имеют оттенок снизу вверх и передаются на каракалпакский язык изафетной конструкцией, вторым компонентом которой является послелог «аст» в исходном падеже.

1. Из-под снега на крышах торчат клочья гнилой соломы (Т.С.Голубева, Рассказы по истории СССР, 68). – Жайлардың төбесіндегі қардың астынан ширген сабанның ушлары шығып тур. (Т.С.Голубева, СССР тарихы бойынша гүрринлер, 77).

2. Қадир буктың астынан шықты. (К.Султанов. Ақ дарья, 200). – Қадир поднялся из-под кустов (К.Султанов. Белое море. 198).

На основе изучения локальных значений предлога «из-под» на каракалпакский язык приходим к кратким выводам:

1) значение направленности из предлогов пространства находящегося под чем-то – изафетная конструкция, второй компонент которой послелог «аст» в исходном падеже: достать из-под кровати – кәт+тиң асты+нан алыў;

2) значение исходного пункта, находящегося вблизи чего-нибудь - изафетная конструкция, второй компонент которой послелог «жан» или «кас» в исходном падеже: бежать из-под Москвы – Москва+ның жаны+нан қашыў;

3) значение исходного пункта, каракалпакского через, сквозь чего-нибудь - изафетная конструкция, второй компонент которой послелог «аст» в исходном падеже: выйти из-под куста - бук+тың асты+нан шығыў.

Исследование значений русских предлогов и средств передач их в каракалпакском языке имеет научное и практическое значение. Так как переводчик в данном случае становится лицом к лицу с национальными отличиями каждого из языков, так как «в правилах сочетания слов, в закономерностях образования разных видов и типов словосочетаний ярко проявляется национальная специфика языка» [2:4].

Многочисленные и разнообразные средства каракалпакского языка, которые могут быть эквивалентами русских глагольных предложных конструкций, ещё не изучены, и поэтому часто в допускаются ошибки в переводах научной и художественной литературы, что и является причиной упрощенчества и искажения русского текста в передаче её на каракалпакском языке.

Литература

1. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. Т.2, ч.1, -М.: 1952.
2. Виноградов В.В. Вопросы изучения словосочетания. «ВЯ», 1954, № 3.
3. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. -М.:1956,
4. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. -Л.: 1941.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада локал маъноли рус тили предлоглари «из-за», «из-под» маъноларининг қарақалпоқ тили воситалари билан ифодаланиши ҳолатлари тадқиқ этилган.

РЕЗЮМЕ

В статье исследуются языковые средства каракалпакского языка для передачи локального значения русских предлогов «из-за» и «из-под».

SUMMARY

The article deals with linguistic means of the Karakalpak language to transfer the local meaning of the Russian prepositions as “because of” and “from under”.

MILLIY XARAKTERDAGI FRAZEOLIGIZMLARNING SHAKLLANISH MANBALARI

E.Xujaniyazov – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

N.Sultanova - *magistr*

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: frazeologizmlar, milliy xarakter, fors- tojik tili, leksema, shakllanish, maʼnoviy yaxlitlik, harakat, buyum, antroponim, komponent.

Ключевые слова: фразеологизмы, национальный характер, персидско- таджикский язык, лексема, формироваться, единство значений, предмет, антропоним, компонент.

Key words: phraseology, national character, Persian -Tadjik language, lexeme, to form, unity of meanings, mobility, subject, anthroponym, component.

Frazeologizmlarni tarixiy jihatdan, yaʼni frazeologizmlarning tarixan shakllanishi nuqtai nazardan oʻrganish frazeologiya ilmi oldida turgan asosiy muammolardan biridir. Frazeologizmlar faqat til hodisasi boʻlibgina qolmay, balki ular ijtimoiy-tarixiy davrning mahsuli sifatida ham namoyon hisoblanadi. Shu maʼnoda frazeologizmlarning shakllanishi xususiyatlarini tadqiq etilganda, ularni tarixiylik jihatdan oʻrganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Diaxron tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, frazeologizmlarning paydo boʻlishi va shakllanishi uzoq oʻtmishga borib taqaladi.

Oʻzbek tili frazeologiyasi oʻziga xos tarixiy, taraqqiyot bosqichlariga ega. Tabiiyki, dastlabki bosqichda, frazeologizmlar tarkibidagi leksemalar oʻzbek tili leksikasining oʻz qatlamidan paydo boʻlgan. Davrlar oʻtishi bilan tilimizga fors-tojik hamda arab tillaridan koʻplab

leksemalar oʻzlashgan, ular frazeologizmlar tarkibida ham oʻz aksini topgan.

Frazeologik tarkib ham leksik tarkib kabi rivojlanishi va boyishi, shuningdek, oʻzgarish jarayonida tilning ichki qonuniyatlarigaboʻysinishi mumkin. Frazeologizmlarning hosil boʻlishi bevosita leksika bilan bogʻliq. Leksik fond qay darajada soʻzlar bilan boyib borsa, frazeologik fond ham shunchalik boyib boraveradi. Chunki frazeologizmlarning shakllanishi uchun birinchi manba leksemalardir. Frazeologizmlar leksemalarning oʻzaro shakllangan uyushmasi ekanligini unutmashlik kerak. Shunga koʻra, frazeologizmlar birikmalardan iborat. Ammo frazeologizmlarning oʻziga xos shakllanish jarayonlari ularni oddiy soʻz birikmalaridan farqlaydi. Frazeologizmlarning shakllanishi lisoniy va nolisoniy omillar bilan ham bogʻliqdir. Frazeologizmlarning paydo

bo'lishi va shakllanishi, birinchidan, tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-siyosiy hayot, siyosiy-ma'naviy qarashlar, ikkinchidan lisoniy, ya'ni tilning grammatik qonun-qoidalari kabi omillar bilan uzviy aloqadordir. Shakllanish davrida frazeologizmlar ham leksika kabi tilning ichki qonuniyatlariga fonetika, leksik-semantik, grammatik talablarga bo'ysundiriladi.

«Fazeologizm til birligi sifatida murakkabligi, uning ma'nan yaxlitligi bilan alohida shakllangan shakli o'rtasidagi ziddiyat, nomoslik, iboradagi nutqiy va etimologik ma'nolar nomuvofiqligi ularning nutq jarayonida qo'llanishini qiyinlashtiradi» [1]. Bu fikrni tasdiqlab, yana shuni ta'kidlaymizki, bu nomuvofiqlik frazeologizmlarning etimologik asosini aniqlashni ham mushkullashtiradi.

O'zbek tili frazeologik manbalarini o'rganishda, ularni leksik-semantik guruhlariga ajratish leksikaga nisbatan muammoli o'rinlar, chalkashliklar, hatto hal qilinishini qiyin kechadigan qirralari ko'ndalang bo'ladi. Shulardan biri frazeologizmlarning qatlamlari masalasidir. Qatmlanuvchi frazeologizmlar genetik jihatdan turli davrlarga mansub bo'ladi. Leksemalar «genetik jihatdan ikki manbaga mansubdir: a) o'sha tilning o'ziniki bo'lgan so'zlar; b) bu tilga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar» [2]. Fazeologizmlarda bunday qatlamlarni aniqlash bir qadar qiyin. Chunki, birinchidan, frazeologizmlar tarkibidagi leksemalar genetik jihatdan turli qatlamlarga tegishli bo'lsa, ikkinchidan, shakl va ma'no o'rtasida nomuvofiqlik ham mavjud. Masalan, «alifni kaltak deymaslik» frazeologizmi «g'irt savodsiz bo'lmoq», «hech narsa bilmaslik», «ma'lumoti yo'q» kabi ma'noni ifodalaydi.

Fazeologizmlarning shakllanishi turli yo'llar bilan amalga oshadi. Til egalari u yoki bu harakat va holatni ifodalash maqsadida kishilar xarakteriga o'xshash narsalarni ko'chirish asosida obrazli iboralarni shakllantiradilar.

Ayrim milliy xarakterdagi frazeologizmlarning ma'nolari birikma ifodalaydigan belgi, harakatdan kelib chiqadi. Masalan, tilimizdagi «Ali desa, Bali demoq» frazeologizmi biron narsa, hodisa yoki tushuncha bilan bog'lanmaydi. Bu frazeologizm tarkibidagi Ali va Bali ma'lum shaxslarning nomi bilan ham bog'liq emas. Bunda ikki kishining o'zaro bahslashishi va ulardan birining o'rinsiz gap qaytaraverishi, o'jarligini ifodalash maqsadida tasodifiy qo'llanilgan komponentlardir. Ikkinchi komponent Bali fikrimizcha Vali bo'lishi kerak. Chunki Bali antroponimi o'zbek tilida uchramaydi. Talaffuzni soddalashtirish maqsadida Vali o'rniga Bali shakli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin, deb hisoblaymiz. Bali komponentining Vali ekanligini «Alining kekini Validan olmoq frazeologizmi ham tasdiqlaydi. Bu frazeologizm tarkibida Vali komponenti to'g'ri qo'llanilgan. Biroq bunda ham frazeologizm komponentlari ma'lum shaxslarning nomi bilan bog'lanmaydi. U «alamini aynan zarur bo'lgan kishidan emas, balki bunga aloqasi bo'lmagan kishidan olish» tushunchasi bilan bog'lanadi.

Ayrim frazeologizmlarning ma'nosi biron harakat-hodisaning oqibati, sababi natijasida kelib chiqadigan harakat-hodisaning o'xshashligi bilan aloqador bo'ladi. Bunda frazeologizmining ma'nosi relik (qoldiq) ma'nodek tuyuladi. Arava leksemasi bilan bog'liq «aravani quruq olib qochmoq, arava olib qochmoq» «olib qochmoq» frazeologizmlari «balandparvoz gap qilmoq behuda maqtanmoq» ma'nosi ifodalaydi. Bu ibora milliy xarakterga ega bo'lishi bilan birga, ularning etimologik manbasini quyidagicha izohlash mumkin: aravaga yuk ortmasdan, quruqdan-quruq yurishsiz eshakka ham, egasiga ham zarur, ikkinchidan, aravaning quruqligi hech narsadan hech narsa yo'q maqtanish bilan teng. Shundan kelib chiqib, quruqdan-quruq yurish maqtanish bilan tenglik, behudalik holatiga o'xshatilgan.

Bulardan tashqari, arava leksemasi ishtirokida «aravangni tort», «o'z aravangni o'zing tort» kabi frazeologizmlar ham shakllangan bo'lib, ular ham aravaning xususiyatlarini o'xshatish asosida yuzaga kelgan.

«Arpasini xom o'rmoq» frazeologizmi «yomonlik qilmoq» ma'nosi ifodalaydi. Bunda frazeologizm ifodalaydigan ma'no so'z birikmasi bildirgan belgi, harakatdan mantiqan kelib chiqadi. Bunda birovning arpasi xom o'rish, unga yomonlikni ravo ko'rish bilan tengligi nazarda tutilgan.

«Arra qilmoq» frazeologizmi ham harakat ma'nosi mantiqan kelib chiqadi. Odatda arra kesadigan boshqa asboblarga nisbatan teng va tekis, bejirim kesishi bilan ajralib turadi. Teng bo'lib olish ma'nosi arraga xos bo'lgan belgi-xususiyatdan mantiqan kelib chiqqan. Chunki aynan shu xususiyat teng va bejirim kesish holatiga o'xshatilgan. Shu asosda tilda yangi frazeologizm shakllangan: *Kolxoz a'zosi bo'lmagan tanish-bilishlariga yer ajratib berib, qovun-torvuz ektirdi-da, hosilni ular bilan arra qildi* (Mushtum).

«Atlas ko'ylakka bo'z yamoq» frazeologizmi shunday jarayonni amalga oshirish maqsadga muvofiq emasligi tushunchasi bilan bog'lanadi. Atlas milliy liboslar ichida eng ohorlisi, bo'z esa uning aksidir. Bu ikki buyum o'rtasidagi nomuvofiqlik, nomoslik ushbu frazeologizmga xos «arzimagan nuqsonning yaxshi narsani buzishi» ma'nosining yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Ayrim milliy xarakterli frazeologizmlar muayyan bir davrning mahsuli bo'lib, ular o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, jo'g'rofiy hayotini aks ettiradi. Masalan; Aflotun miya frazeologizmining paydo bo'lishi buyuk yunon faylasufi Platon (sharqda Aflotun nomi bilan mashhur) nomi bilan bog'lanadi. U aqlli, donishmand bilimdon kishi bo'lgan. Shu xususiyat asosida aqlli, donishmand kishilar Aflotun miya deb atalgan.

Ayrim frazeologizmlar jug'rofiy nomlar bilan aloqadordir. Masalan; «Afrosiyobdan qolgan frazeologizmi Markaziy Osiyodagi eng qadimgi shahar Afrosiyob toponimi bilan bog'lanadi. Qadimiyluk xususiyati «kishilar yoshining ulug'ligi» ma'nosini ifodalash uchun asos qilib olingan.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlarning turli jihatlarini o'rganish bo'yicha jiddiy yutuqlarga erishildi. Fazeologizmlarni ilmiy tadqiq etish bo'yicha qator doktorlik va nomzodlik ishlari himoya qilindi, o'nlab ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalari, frazeologik lug'atlar yuzaga keldi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etishni birinchi bo'lib Sh.Rahmatullayev boshlab berdi. Uning 1966-yilda himoya etilgan doktorlik ishida va «O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari» nomli monografiyasida frazeologizmlarning grammatik tabiati keng ko'lamda yoritiladi. Muhimi, bu asarda frazeologizmlar lug'aviy birlik sifatida o'rganilishi zarur ekanligi asoslab berildi. Monografiyada o'z ifodasini topgan fikr-mulohazalar, xulosalar frazeologizmlarni semantik, grammatik stilistik jihatlardan o'rganishga imkoniyat yaratdi. Olimning keyingi yillarda yaratgan qator ilmiy ishlari [3] ham o'zbek frazeologiyasining rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Xullas, tilshunos frazeologizmlarni grammatik va semantik planda o'rganishni boshlab berdi.

Bugungi kunga kelib esa frazeologiya lisoniy kategoriya sifatida keng miqyosda o'rganilmoqda. Bu esa frazeologiyani tilshunoslikning yangi sohasi sifatida shakllantirishga imkon tug'dirdi va uning o'rganish ko'lamini kengaytirdi. Fazeologizmlarning grammatik, sintaktik, stilistik xususiyatlarini har tomonlama chuqur ilmiy tahlil etish uning bir qadar nazariy asosini yaratish mas'uliyatini ham keltirib chiqaradi. Ammo ko'pgina nazariy va amaliy-ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelishiga qaramay frazeologiya hozirgacha tilshunoslikning kam o'rganilgan sohasiligicha qolmoqda.

Frazeologizmlar struktural, semantik, funksional-uslubiy jihatlaridan murakkab hodisa bo'lganligi uchun u o'ziga xos shakllanish qonuniyatlariga ega. Frazeologik shakllanish til elementlarining, xususan, ikki yoki undan ortiq so'zlarining o'zaro uyushib, yangi til birligini yuzaga keltirishgacha bo'lgan jarayondir.

Frazeologizmlarning tarkibiy va ma'naviy shakllanishi leksikaga nisbatan juda murakkab bo'lib, bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshadi. Ta'kidlash joizki, hozirga qadar frazeologizmlar sinxron nuqtai nazardan o'rganildi va bu intilish hozirgacha davom etmoqda. Bu esa frazeologizmlarning manbalari, tarixiy-etimologik asoslarini o'rganish imkoniyatini bermayotir.

Turkiyshunoslikda, jumladan, o'zbekshunoslikda frazeologizmlar V.Vinogradovning tadqiqotlari ta'sirida maydonga kelgan «so'zga muqobil» nazariya asosida o'rganildi. Bu nazariyaga ko'ra, leksemalar va frazeologizmlarning o'zaro vazifadoshlik, nominativlik kabi xususiyatlari ana shu ikkala til birligiga ham tegishlidir. Shundan kelib chiqilib, frazeologizmlar leksemalarning alohida rasmiylashgan shakli sifatida tadqiq etildi va leksikologiyaning bir bo'limi qilib o'rganildi. Bu, bir tomondan to'g'ri, ikkinchi tomondan, shartlidir. To'g'riligi shundaki, frazeologizmlarning vazifaviy xususiyatlari leksemalarga o'xshaydi, shartliliigi shundaki, frazeologizmlar murakkab til birligi bo'lganligidan leksemalardek tadqiq etish frazeologizmlar uchun kifoya qilmaydi. Bunday farq, ayniqsa, frazeologizmlarning shakllanish jihatlarida ochiqdan-oydin namoyon bo'ladi. Aslida leksemalarning genetik asosi frazeologizmlarning yuzaga kelishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Chunki aynan leksemalar frazeologizmlar uchun «qurilish ashyo-

si»dir. Ammo «frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining o'ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga ko'ra, frazeologik birliklar alohida yondashishni, o'rganishni talab qiladi» [3].

Erishilgan yutuqlarni e'tirof etish bilan birga, hali o'zbek frazeologiyasining ko'pgina jihatlarini tilshunoslar e'tiboridan chetda qolayotganligini ham ta'kidlash lozim. Jumladan, frazeologik obyektni belgilash, frazeologizmlarning paydo bo'lish va shakllanishi tizimi, manbalari, tarixiy taraqqiyoti, frazeologik semantik bog'lashuv, ideografik semalar tahlili, frazeologizmlarni diaxron planda tadqiq qilish, frazeologik etimologiya, frazeologik stilistika, turli tillar frazeologizmlarini qiyosiy o'rganish kabi masalalar xususida chuqur ilmiy monografik ishlar olib borilishi zarur. Shuningdek, o'zbek tilining frazeologik qatlamlarini belgilash, nutq jarayonidagi o'ziga xos qo'llanish xususiyatlari, qo'llanishdagi nuqsonlar, frazeologizmlar o'zlashtirish kabi masallalar ham tilshunoslar e'tiborida bo'lishi kerak. Shuningdek, «xalq tili frazeologiyasi, o'zbek folklori frazeologiyasi, o'zbek dialektal frazeologiyasi materiallari hali tadqiq etilganicha yo'q».

Eng muhimi, o'zbek tili frazeologiyasining asoslarini belgilovchi ilmiy-nazariy qo'llanma ham yaratish zarur. O'zbek tilining barcha frazeologik boyligini jamlovchi ko'p tomlik izohli lug'atini tuzishni boshlab yuborish lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun iste'molda ko'p qo'llanadigan izohli frazeologik lug'at yaratish ham zarur. Shubhasiz, amalga oshirilajak bu ishlar frazeologizmlarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham chuqur o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar

1. Йўлдошев Б. Фразеологизмларнинг адабий тил нормасига муносабатига доир. // Ўзбек тили ва адабиёти. -Т.: 1992, № 3-4, 39-6.
2. Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Т.: 1985, 48-б.
3. Раҳматуллаев Ш. Лексикология билан фразеология. //Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: 1992, 49-186-б. Шу муаллиф. Ўзбек тилининг фразеологик луг'ати; Шу муаллиф. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. -Т.: 1992.

РЕЗЮМЕ

Maqolada frazeologizmlarning milliy xarakterni aks ettirishi masalalari yoritilgan. Unda har bir frazeologizmnig xalq turmush tarziga aloqadorligi ko'rib chiqilgan, unga sharhlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье освещаются вопросы отражения национального характера каждого народа в фразеологизмах. В ней рассматривается связь фразеологических единиц с жизнью народа и даётся комментарий конкретным фразеологизмам.

SUMMARY

The article is devoted to the issues of expressing the national character of the people in phraseology. The author studies the connection of phraseological units with the life of people and it is given the explanation commentary to concrete phraseological units.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA QO'LLANILGAN OLMOSHLAR

S.S.Jumamuratova – *filologiya fakultetining talabasi*

Ag'iniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: Alisher Navoiy, olmosh, turkum, tarixiylik, shakl, ma'no.

Ключевые слова: Алишер Навои, местоимение, группа, историчность, форма, значение.

Key words: Alisher Navoi, pronoun, group, historicity, form, meaning.

Abdurauf Fitrat: "Navoiyning asarlari til uchun juda boy bir xazinadir. Ularni yolg'iz til nuqtayi nazaridan tekshirish, ulardagi so'zlarni yig'ib izoh qilishning o'zi juda katta ilmiy xizmat bo'lar edi" degan edi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiyning asarlari shaxsiyati kabi buyuklikka daxldor. Ko'pchilik tan olganidek, Navoiy asarlarini tushunish bir qarashda qiyin. To'g'ri, uning asarlarini o'qish uchun maxsus lug'atlar yaratilgan bo'lib, ulardan unumli foydalanish mumkin. Bundan tashqari, Navoiy asarlarini o'rganishning yana bir soddah usuli bo'lib, ayrim so'zlarni lug'atlarsiz tahlil qilish ham mumkin. Buni Navoiy asarlarida qo'llanilgan olmoshlar misolida ko'rish mumkin.

Ma'lumki, olmoshlar tilshunoslikda fe'l yoki ot so'z turkumiga qaraganda kam o'rganilgan mavzulardan biri. Tilshunoslikda olmosh "ot, sifat, son, ravish kabi so'z turkumlari o'rnida qo'llanib, ularni ko'rsatishga xizmat qiluvchi va ularning vazifasini bajaruvchi so'z turkumi" sifatida tariflanadi. Olmoshlar narsani, uning belgisi va

miqdorini anglatmaydi, balki faqat ularni ko'rsatish, ularga ishora qilish uchun xizmat qiladi. Olmoshning ma'nosi, uning qaysi so'z turkumi o'rnida kelganligi kontekstda yoki nutq vaziyati orqali aniqlanadi. Chunki olmoshlarning ko'pchiligi alohida olinganda juda umumiy ma'noga ega bo'ladi. Navoiy asarlarida qo'llangan ayrim olmoshlar hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlariga mos keladi: Masalan,

Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,

Meni istar kishining suhbatini ko'nglim pisand etmas.

Bu misolda *men* olmoshi ikki xil ko'rinishda, hozirgidek, ya'ni bosh va tushum kelishigida qo'llangan. Navoiy asarlarida olmoshning barcha turlari egalik va kelishik qo'shimchalari bilan tarixiy shaklda qo'llanishi o'quvchi uchun qiyinchilik tug'diradi.

Ayrim g'azallarida *sen* kishilik olmoshi *san* shaklida, *men* kishilik olmoshining esa *man* shaklida ishlatilishi kuzatiladi. Ayniqsa, mazkur olmoshlarning takror